

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

BEKMUROTOVA SHAXNOZA AZAMATOVNA

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA JUFT SO‘ZLAR VA ULARNING
STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UDK: 811.111
811.512.133:
81'372

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Bekmurotova Shaxnoza Azamatovna

Nemis va o'zbek tillarida juft so'zlar va ularning struktur-semantik
xususiyatlari 3

Бекмуротова Шахноза Азаматовна

Парные слова в немецком и узбекском языках и их структурно-
семантические особенности 25

Bekmurotova Shaxnoza Azamatovna

Pair words in German and Uzbek languages and their structur-semantic
research 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 52

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

BEKMUROTOVA SHAXNOZA AZAMATOVNA

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA JUFT SO‘ZLAR VA ULARNING
STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2019.2.PhD/Fil.845 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim tarmog'ining (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imyaminova Shuxratxon Salijanovna
Filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Djumabayeva Jamila Sharipovna
Filologiya fanlari doktori, professor

Sodiqov Zoxid Yakubjonovich
Filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning "____" _____ 2023-yil soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.: (99871) 246-54-17; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: devonxona@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.: (+99871) 246-54-17; faks: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.G.Sheremetyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol. f. d., professor

N.E.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol. f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida muayyan xalqning o'zligi, turmush tarzi, tafakkuri, dunyoqarashi, o'tmishi va kelajagini aks ettiruvchi hodisa hisoblangan juft so'zlar hamda ularning milliy xususiyatlarini tilning umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq holda tadqiq etish hanuzgacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Hozirgi zamon tilshunosligida juft so'zlarning lingvistik xususiyatlari va ularning shakllanish omillarini tadqiq etish bo'yicha izlanishlar olib borish keng tus oldi.

Dunyo tilshunosligida leksikografiya masalalari, lug'at tuzish an'analari, til o'rgatishning samarali usullarini xorijiy tillar ta'limiga joriy etish orqali til o'rganuvchilariga qulayliklar yaratish doimo tilshunos olimlar e'tiborida bo'lib kelgan, shuning uchun turli xil lug'atlar tuzish, mavjud lug'atlarning strukturasi va mohiyatini o'rganish, ularning qiyosiy tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarga talab kuchaymoqda. Tilshunoslikda alohida o'rin tutuvchi juft so'zlarning struktur-semantik xususiyatlarini bir necha til tizimida chog'ishtirib o'rganish ilmiy ehtiyoj hisoblanmoqda. Juft so'zlar faqatgina kundalik hayotdagi nutqimizdagina qo'llanilib qolmasdan, balki badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topishi, tilda o'ziga xos dolzarbliklar kasb etishi ham muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston" barpo etilayotgan va "Uchinchi Renessans" poydevori yaratilayotgan hamda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning hozirgi davrida ilm-fanning barcha sohalari qatorida chog'ishtirma tilshunoslik rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimiz: "Hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz"¹, – deb ta'kidlagan edi. Yangi O'zbekistondagi rivojlanayotgan ilm-fan sharoitida tilshunoslik, xususan, chog'ishtirma tilshunoslik sohasida ham chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyati yaralmoqda. Natijada, nemis va o'zbek tillaridagi juft so'zlarni struktur-semantik tadqiq etish hamda bu boradagi ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish zarurati tug'ildi.

Juft so'zlar o'zining xalqchilligi, badiiy ifodaga boyligi va tilimizni qaysidir ma'noda go'zal qilishi bilan ham dolzarblik kasb etadi. Nemis tilidagi juft so'zlar tilshunos olimlarning ko'plab vakillari tomonidan o'rganilgan. Lekin o'zbek tilida ushbu masalada biroz oqsashlar ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham aynan ikki qarindosh bo'lmagan tillarni chog'ishtirib o'rganish ishimizning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

¹Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu obyektiv zaruratdir / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021-yil 17-avgust. – № 165 (421).

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorlari, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyat bilan bogʻliq boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Juft soʻzlar tilshunoslikning mustaqil tarmogʻi sifatida koʻplab tilshunos olimlar tomonidan oʻrganilgan. Jumladan, nemis tilshunos olimlari T.Shippan, I.Agricola, H.Myuller, S.Zayler, H.Burger², V.Flaysler³, H.Myuller⁴, V.Hofmayster⁵lar tomonidan chuqur oʻrganilgan. Shuningdek, uning doimiy rivojlanishida rus tilshunosligining ham oʻrni kattadir. Rus soha mutahassislaridan V.Vinogradov, A.Nikolayev, M.Stepanova, I.Chernesheva, A.Potebnya, V.Teliyalar juft soʻzlar haqida oʻz tadqiqotlarida fikr bildirib oʻtishgan.

Juft soʻzlar nemis tilshunosligida oʻrganila boshlangach, uni tasniflash, tizimlashtirish masalasi yuzaga chiqdi. Juft soʻzlarni qiyosiy va chogʻishtirma asosdagi tadqiqi bilan shugʻullangan rus tilshunos olimlari M.Stepanova hamda I.Chernishevalar ularni struktur-semantik jihatdan tasniflagan. Oʻzbek tilshunoslaridan esa N.Mamatov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, H.Berdiyev, Y.Pinxasov, B.Yoʻldoshev, A.Mamatov, M.Sodiqova, Oʻ.Hakimov, Sh.Usmanova, K.Bozorboyev, Sh.Abdullayev, Sh.Almamatova va yana bir qator soha mutaxassislari⁶ juft soʻzlar ustidagi tadqiqotlar rivojida oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshishgan. Juft soʻzlarning tarjimasiga oid masalalar G.Salomov,

² Burger H. Mediensprache. Eine Einführung in Sprache und Kommunikationsformen der Massenmedien. – Berlin: Klaus, 2005. – S. 63 // Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Klaus, 2010. – S. 11.

³ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Klaus Verlag, 1997. – S. 9.

⁴Müller H.G. Adleraug und Luchsenohr. Deutsche Zwillingsformeln und ihre Gebrauch. – Frankfurt: Lang Verlag, 2009. – S. 241.

⁵ Hofmeister W. Sammlung der gebräuchlichen Zwillingsformeln in der deutschen Gegenwartssprache. 2010. – S. 109.

⁶Mamatov N. Oʻzbek tilida qoʻshma soʻzlar. – T.: Fan, 1982. – 233 b.; Hojiyev A. Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar. – Toshkent, 1963. – 144 b.; Rahmatullayev Sh. Oʻzbek frazeologiyasining baʼzi masalalari. Filol. fan. d-ri. dis. ... avtoref. – T., 1966. – 46 b.; Berdiyev Oʻ., Yoʻldoshev B. Oʻzbek frazeologiyasiga doir bibliografik koʻrsatkich. – S., 1977. – 38 b.; Pinxasov Ya.D. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. – T.: Oʻqituvchi, 1969. – B. 55-65; Yoʻldoshev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. dok. diss. ... – T., 1993. – 297 b.; Mamatov A.E. Hozirgi zamon oʻzbek tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – T.: Fan, 1991. – 276 b.; Sodiqova. M. Qisqacha oʻzbekcha-ruscha maqol-matallar lugʻati. – T., 1993. – 259 b.; Hakimov Oʻ.M. Oʻzbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanliklari. Filol. fanl. nom. ... diss. avtoref. – T., 1994. – 24 b.; Usmanova Sh. Oʻzbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar. Filol. fan. nom. diss. ... – S., 1998. – 160 b.; Bozorboev K.T. Oʻzbek soʻzlashuv nutqi frazeologizmlari. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – S., 2001. – 22 b.; Abdullayev Sh.D. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi (Hayipbergenov asarlarining oʻzbekcha tarjimasida). Filol.fan.nomz. diss. – T.: OʻzRFAA. Navoiy nomidagi Til va adabiyot insituti, 2007. – 157 b. va boshqalar.

Sh.Imyaminova⁷, Y.Po‘latov, S.Mamajonov, O.Mo‘minov kabi tilshunoslarning⁸ tadqiqotlarida atroflicha yoritib berilgan.

Shunday qilib, nemis tilidagi juft so‘zlarni nemis tilida klassifikatsiyalashni, asosan, V.Flaysler, H.Myuller, V.Hofmayster, H.Burger kabi nemis tilshunos olimlarining tadqiqotlarida ko‘rish mumkin. Keyinchalik esa E.Zayler juft so‘zlarning tasnifi bilan birgalikda ularning yasaliş usullarini tadqiq qilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nemis va o‘zbek tillaridagi juft so‘zlarning leksik-semantik, struktur-funksional xususiyatlarini o‘zaro chog‘ishtirgan holda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

nemis va o‘zbek tilshunosligida juft so‘zlarning o‘rganilish tarixi hamda til tizimidagi umumiy jihatlarini yoritish;

nemis tilida juft so‘zlarga oid terminlardagi chalkashliklarni tahlil qilish hamda chog‘ishtirilayotgan nemis va o‘zbek tillarida juft so‘zlar struktur-semantik jihatdan affiksatsiya, konversiya va kompozitsiya usullari orqali yasalişini isbotlash;

tadqiqot manbai sifatida tanlangan asarlarda nemis va o‘zbek tillaridagi juft so‘zlarning struktur-semantik aspektini aniqlash;

tadqiqot materiali sifatida tanlangan lug‘atlarda juft so‘zlarning o‘xshashlik va farqli jihatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida Fritz Vyurthlening “Babur der Tiger” qissasi, Y.Grimm va V.Grimmlarning “Märchen” (ertaklar) nomli to‘plamlari, X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romoni va V.Hofmaysterning “Sammlung der gebräuchlichen Zwillingsformeln in der deutschen Gegenwartssprache”, Ruska Simeonova va Sanna Dimitrovaning “Deutsch-Bulgarisches Lexikon der Zwillingsformeln” hamda Sh.S.Imyaminova va G.A.Tilovovalarning “Nemis va o‘zbek tillarida juft so‘zlar” nomli lug‘atlaridagi nemis va o‘zbek tillaridagi juft so‘zlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti nemis va o‘zbek tillarida juft so‘zlarning shakllanishi, tuzilishi, leksik-semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda komponent tahlil, struktur tahlil, leksik-semantik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

⁷ Bu olimlar orasida, tilshunos professor Sh.Imyaminova aynan nemis frazeologizmlarini nemis va o‘zbek tillarida chog‘ishtirma aspektida tadqiq etgan olimlardan biridir. Ikki tilni chog‘ishtirish asosida frazeologiya sohasiga oid ko‘plab maqola va kitoblar yaratgan. Bu ishda uning “Nemis va o‘zbek tillarida juft so‘zlar” (2007) kitobidan foydalanamiz.

⁸ Salomov G‘. Til va tarjima. – T.: Fan, 1966. – 145 b.; Salomov G‘. Badiiy tarjimada uslubiy o‘ziga xoslikni qayta yaratish problemi // Tarjima san‘ati (Maqolalar to‘plami). – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980. – 53 b.; Po‘latov Yu. Badiiy asarda nomlar tarjimasi. – T.: Fan, 1967. – 68 b.; Mamajonov S. O‘zbekistonda badiiy tarjima tarixi. – T.: Fan, 1985. – B. 25-35; G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi // Oliy o‘quv yurtlar uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Tafakkur Bo‘stoni, 2012. – 280 b.; Safarov Sh. Tarjimonning lisoniy shaxs sifatida bajaradigan faoliyati // Xorijiy filologiya (Maqolalar to‘plami). – S.: SamDChTI, 2018. – B. 9-21.

nemis va o‘zbek tillarida juft so‘zlarning yasalishi, juft so‘z tarkibiy komponentlarida ot, sifat, fe‘l, ravish so‘z turkumlari kabi o‘xshashliklar va nemis tilidagi juft so‘zlarning fonologik hamda juft so‘zlar uchun tuzilgan modellarida o‘zbek tilidan farqli ravishda nemis tilida juft so‘zlar *bog‘lovchi va predloglar* orqali hosil bo‘lishi kabi farqlanish hamda nemis tilida juft so‘zlarning turli xil lingvistik terminlar bilan nomlanishida esa terminologik nomutanosibliklar mavjudligi asoslangan;

nemis tilida juft so‘zlarga doir terminlardagi turli xil lingvistik terminlar bilan nomlanishi terminologik chalkashlikning ishda o‘zbek tiliga ma‘nosi jihatidan mos keladigan muqobil “Wortpaare” leksikasi tanlandi hamda chog‘ishtirilayotgan ikki tildagi juft so‘zlarning struktur-semantik jihatdan affiksatsiya, konversiya va kompozitsiya usullari orqali yasalishi isbotlangan;

nemis va o‘zbek tillaridagi juft so‘zlar tarkibidagi o‘xshashlik hamda farqli jihatlar va ular ikki tilda chog‘ishtirilganda komponentlar hisobga olinishi umumiy morfologik hamda semantik-kategorial tavsifni berishi ikki tilda ham izomorfik xususiyatga ega ekanligi asoslangan;

badiiy asarlarda nemis va o‘zbek tillaridagi juft so‘zlarning struktur-semantik jihatdan farqlari aniqlanib, ot va sifat so‘z turkumlari (eng katta turkum guruhlar) ko‘p qo‘llaniladigan gap bo‘laklari ekanligi ko‘chma yoki o‘z ma‘nosida qo‘llanilish holatlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikki qiyoslanayotgan tillarda qayd qilingan juft so‘zlarning struktur-semantik xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektida tadqiq etish uchun V.Hofmaysterning “Sammlung der gebräuchlichen Zwillingsformeln in der deutschen Gegenwartssprache” (Zamonaviy nemis tilida juft so‘z formalari) hamda Ruska Simeonova va Sanna Dimitrovaning “Deutsch-Bulgarisches Lexikon der Zwillingsformeln” (nemis-bolgar tillarida juft so‘zlar) lug‘atlaridan to‘plangan juft so‘zlar qariyb 1000 tani tashkil etdi. Ular asosida “Nemischa-o‘zbekcha juft so‘zlar lug‘ati”ning bosma va umumiy juft so‘zlar yig‘indisidan “Nemischa-o‘zbekcha juft so‘zlar” elektron mobil ilova dasturi yaratilgan;

yaratilgan bosma va elektron lug‘atlar oliy o‘quv yurtlarida tillarni chog‘ishtirib o‘qitish hamda o‘rganishga, chog‘ishtirma va qiyosiy tilshunoslik sohalari bo‘yicha maxsus seminar-treninglarni tashkil qilish amaliyotiga tadbiiq qilingan.

Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan xulosalarning ishonchliligi va barqarorligi, nemis va o‘zbek tillaridagi juft so‘zlarning tarkibini, ularning semantik jihatdan o‘xshashligi va farq qiluvchi jihatlari hamda ekvivalentlik darajasi aniqlangani, respublika miqyosidagi va xorijiy jurnal, konferensiyalar to‘plamlarida maqolalar nashr qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, qardosh bo‘lmagan turli tizimli tillar, ya‘ni nemis va o‘zbek tillari materiali asosida juft so‘zlarning shakllanish omillarini tadqiq qilish, ularning har ikkala tilda qo‘llanishida o‘zaro mosligini tahlil qilish va shu bilan birga

juft soʻzlarning muhim birlik sifatida lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, “Chogʻishtirma tilshunoslik”, “Leksikologiya”, “Qiyosiy tipologiya”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanlarini oʻqitishni rivojlantirishda alohida rol oʻynaydi. Ishdagi tilshunoslikning zamonaviy tendensiyalari nuqtayi nazaridan yondashuvlar nemis va oʻzbek tillaridagi juft soʻzlar semantikasini chuqurroq yoritib berish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida quyidagilar keltiriladi:

nemis va oʻzbek tillarida juft soʻzlarning yasalishi, juft soʻz tarkibiy komponentlarida oʻxshashliklar mavjudligi va nemis tilidagi juft soʻzlarning fonologik hamda juft soʻzlar uchun tuzilgan modellaridagi kuchli farqlanish va nomutanosibliklarga oid xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan F1-FA-0-43429, FA-F1, GOO2 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasi va OʻzRFA QQA Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan FA-F1-OO5 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalarning ijrosini taʼminlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 26-avgustdagi 172/1/1-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, nemis va oʻzbek tillaridagi juft soʻzlarga oid terminlarning oʻzaro munosabatlari ochib berilishi orqali kasbiy taʼlimning sifatini oshirish hamda rivojlantirishga erishilgan;

nemis tilida juft soʻzlarga oid terminlardagi chalkashliklarni tahlil qilish hamda chogʻishtirilayotgan nemis va oʻzbek tillarida juft soʻzlar struktur-semantik jihatdan affiksatsiya, konversiya va kompozitsiya usullari orqali yasalishiga oid xulosalardan Ozarbayjon fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot institutining 2018-2019- yillarda bajarilgan № 4-57 raqamli “Ozarbayjon-Oʻzbekiston: adabiy aloqalarning oʻrni va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro amaliy loyihada foydalanilgan (Ozarbayjon fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot institutining 2022-yil 26-avgustdagi 47-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, nemis tilidagi juft soʻzlarning strukturaviy ahamiyati, shuningdek, bevosita oʻzbek tiliga berilish jarayonida lingvistik muqobilini tanlash muhim ekanligi, bu orqali mukammal ekvivalent tanlashga erishish mumkinligi aniqlab berilgan;

nemis va oʻzbek tillaridagi juft soʻzlar tarkibidagi oʻxshashlik hamda farqli jihatlar va ular ikki tilda chogʻishtirilganda komponentlar hisobga olinishi umumiy morfologik hamda semantik-kategorial tavsifni berishi ikki tilda ham izomorfik xususiyatga ega ekanligi Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot”, “Fan va tarix” koʻrsatuvlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 5-oktyabrdagi 787-423-562-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, turli tizimli tillarda juft

soʻzlar insonlarning muloqot jarayoniga kirib kelishi, ishlatilishi hamda soha leksikasining tartibga solinishida berilgan tavsiyalar tinglovchilar bilimlarining boyishiga xizmat qilgan;

tadqiqot manbai sifatida tanlangan badiiy asarlarda nemis va oʻzbek tillaridagi juft soʻzlarning struktur-semantik jihatdan koʻchma yoki oʻz maʼnosida qoʻllanilishiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2021-2023-yillarga moʻjallangan F3-201912258-raqamli “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti univesitetining 2023-yil 24-fevraldagi 03/1-401-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, badiiy asarlarni va maqolalarni oʻzbek tilidan xorijiy tillarga yoki xorijiy tillardan oʻzbek tiliga tarjima qilishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda maʼruzalar qilingan, ilmiy-metodik seminarlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ta maqola, shulardan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Tadqiqotning hajmi 120 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar soni va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Nemis va oʻzbek tillarida juft soʻzlar hamda ularning tasniflanishi**” deb nomlangan birinchi bobida juft soʻzlarning oʻrganilish tarixi va klassifikatsiyalash jarayonlari, juft soʻz yasalishiga doir nazariyalar qiyoslanayotgan tillar materiali asosida oʻrganilgan.

Juft soʻzlar (*Zwillingsformeln*) nemis tilshunosligida oʻziga xos guruhni tashkil qiladi va koʻpincha maxsus sintaktik tuzilishga ega boʻlgan komponentlari frazeologik maʼno beruvchi juft soʻzlar deb tasniflanadi. Koʻplab tilshunoslar ilmiy ishlarida juft soʻzlarga nisbatan turli terminlardan foydalanishgan: “*Paarformel*” (*juft shakllar*) (*I.Brandsh*), “*Wortpaar*” (*juft soʻzlar*), “*Binomiale*”, “*Hendiadyoine*” (inglizcha: binomial pairs), (*juftlik*) (*V.Hofmayster*),

“Zwillingsformeln” (egizak shakllar), “sprichtwörtliche Formeln” (maqolli shakllar) (A.Iskos, A.Lenkova), “Doppelungen” (takror so‘zlar) va “formelhafte Wendungen” (shakli so‘z birikmalari) kabi nomlar bilan ataladi.

U.Shryoter birinchi bo‘lib juft so‘zlarning *Zwillingsformeln*, *Zwillingspaare*, *Paarformeln* kabi sinonimik terminlarini kiritgan. Odatda, terminlarda sinonimlar bo‘lmasada, bu holatda biz terminlar ko‘pligi va bir hil ma‘noni anglatganligi uchun sinonimik qator deb oldik.

Nemis tilida juft so‘zlar yuqorida keltirilganidek, tilshunoslar tomonidan turli xil terminlar bilan berilgan, bu holat esa, albatta, qiyinchilik tug‘diradi. *Zwillingsformeln* va *Wortpaare* terminlar sinonim hisoblansada, lekin Z.Gergiyeva nemis tilidagi iboralarni o‘rganish asosida ushbu ikki tushunchani ajratadi. *Wortpaare* – bu turli xil so‘zlarning birikmasi (sinonimlar, antonimlar bo‘lishi mumkin. Masalan, Tag und Nacht, klar und deutlich), *Zwillingsformeln* esa – ikki bir xil so‘z birikmasi, ya‘ni “egizak komponentlar”dir. O‘zbek tilida esa nemis tilidan farqli o‘laroq, olimlar faqat **juft so‘z** terminidan foydalanishgan. Shuning uchun nemis tilida tilshunoslar tomonidan eng ko‘p foydalanilgan va o‘zbek tiliga tarjimasini ham to‘g‘ri keladigan **“Wortpaar”** terminini ishimizda qo‘llashni ma‘qul deb hisobladik.

Ba‘zi nemis tadqiqotchilar nemischa juft so‘zlarni keng ko‘lamli juft so‘zlar tarkibiga kiritib, aniq mezonlarga ko‘ra tasniflashni taklif qilishadi.

Shunga ko‘ra:

1. Qofiya turiga ko‘ra: *schicki micki (olifta-satang)*.

2. Bog‘lanish turiga ko‘ra: *fix und fertig (tappa-tayyor, ichib mast-alast bo‘lmoq)*.

3. Tavtologik bog‘lanishiga ko‘ra: *Hand in Hand (qo‘lma-qo‘l), nach und nach (asta-sekin, oz-ozdan)*.

4. Shuningdek, gap strukturasi yasash imkoniyatiga ko‘ra: *hin und hin (u yerda-bu yerda, keldi-ketdi)*.

O‘zbek tilidagi juft so‘zlarning o‘rganilish davri XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Ularni, avvalo, rus va o‘zbek tili doirasida rus olimlari o‘zbek tili bilan qiyoslab o‘rgana boshlashgan. Rus olimlaridan V.Vinogradov, O.Axmanova, A.Nikolaevlar⁹ o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va uyg‘ur tillaridagi juft so‘zlarni o‘rganganlar. Keyinchalik esa yurtimizda o‘zbek tilshunos olimlaridan N.Mamatov¹⁰, R.Berdiyev¹¹, G‘.G‘ulomov¹², B.Madaliyev¹³, N.Abdurahmonov¹⁴, U.Tursunov¹⁵ va shu kabi o‘nga yaqin olimlar o‘zbek tilidagi juft so‘zlar hamda ularning guruhlanishini, yasalish

⁹ Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. – 224 с.; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 608; Николаев С.Г. Что такое хухрымухры // Рус. речь. – № 4. – С. 144.

¹⁰ Маматов Н. **Ўзбек тилида қўшма сўзлар**. – Т.: Фан, 1982. – 233 б.

¹¹ Бердиев Р. Сложные слова в современном туркменском языке. Автореферат канд. дисс. – М.: АСК, 1955. – 101 с.

¹² G‘ulomov A.G‘. O‘zbek tilida so‘z yasash yo‘lari haqida. “O‘zSSR Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti asarlari”. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1949. – 68 b.

¹³ Madaliyev B. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar / Qo‘qon Davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar to‘plami. – Farg‘ona: Institut nashriyoti, 1958. – 385 b.

¹⁴ Abdurahmonov N. Hozirgi zamon o‘zbek tilida juft so‘zlar sostavi masalasi. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining asarlari. – Samarqand: O‘qituvchi, 1963. – 50 b.

¹⁵ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 107 b.

usullarini tadqiq etishgan, shuningdek, ularni qo'shma so'zlar tarkibidan ajratgan holda o'rganganlar. Bu sohadagi asosiy natijalarni, asosan, A. Hojiyevning "O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar"¹⁶ nomli asarida ko'rish mumkin.

Shuningdek, juft so'zlar nemis tilida ma'no kuchaytirish vazifasini turli xil yo'llar bilan amalga oshiradi. Bu borada tilshunos olim K.Levkovskaya¹⁷ juft so'zlarning ma'no kuchaytirish usullarini to'rtga bo'lib o'rganadi:

Bir xil so'zni takrorlash yo'li orqali: *durch und durch* (to'la-to'kis), *über und über* (huda-behuda), *nach und nach* (asta-sekin, oz-ozdan).

Sinonim so'zlar yoki bir-biriga yaqin so'zlarni bog'lash yo'li bilan: *auf Schritt und Tritt* (har qadamda, har yerda, har joyda), *Angst und Bange* (es-xush).

Turli ma'no kasb etuvchi so'zlar, ammo ular orasida juda yaqin bog'liqlik mavjud: *Haus und Hof* (hovli-joy, uy-joy), *Dreck und Speck* (kir-chir).

Ma'no jihatidan bir-biriga butunlay qarama-qarshi bo'lgan so'zlarning bog'lanishi yo'li bilan: *Himmel und Hölle* (jannat va do'zax), *Himmel und Erde* (yeru osmon).

Juft so'zlarning xilma xil turlari uchraydi va ularni olim quyidagi guruhlariga bo'ladi, keyinchalik esa ushbu guruhlar yordamida amerikalik olimlar¹⁸ ham ingliz tilidagi juft so'zlarni tadqiq qilganlar. Ular quyidagicha:

oddiy juftlashish holati: *Arm in Arm* (qo'lni-qo'lga), *von Fall zu Fall* (holatdan-holatga);

qofiyaga solingan juftlashish (ba'zida qo'shib yoziladi): *schicki micki* (olifta-satang) va boshqalar.

tovush alternativi bo'yicha ajralganda;

alliteratsiyaga oid juftlanish: *über Stock und Stein* (bosib-yanchib yurmoq), *Biegen und Brechen* (egilish va bukilish);

assonans¹⁹ o'xshash tovushlar aynan ajralib turadi. Aynan bir xil yoki ohangdosh unli tovushlarning muayyan misra, band, she'r davomida tez-tez takrorlanishi assonans deyiladi.

Nemis olimi H.Myuller o'zining "*Adleraug und Luchsenohr*" nomli asarida juft so'zlarning yasalişini va unda ishtirok etuvchi tovushlarni deyarli matematik aniqlik bilan tushuntirib beradi. Bundan mustasno ravishda shu narsa ko'rsatib beriladiki, bo'g'inlarning miqdori va joylashuv tartibi bir tizimdaligi juda muhim. Chunki juft so'zlar ichidagi bo'g'inlarning miqdori ma'lum davr mobaynida bir xil teng bo'lib qolgan yoki bo'g'inlar soni ko'paygan, yoki kamayib ketgan²⁰.

Bundan tashqari, asosan, Yevropa tillaridan nemis tilida juft so'zlarning yasalişida kombinatsiyalar (bog'liqliklar) mavjud bo'lib, ularda **bir bo'g'inli, ikki**

¹⁶ Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. – Toshkent, 1963. – 144 b.

¹⁷ Левковская К.А. Лексикалогия немецкого языка. – Москва: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1956. – 99. с.

¹⁸ Weinreich U. Problems in the Analysis of Idioms. – Los Angeles: In J. Puhvel (ed.), Substance and Structure of Language, University of California Press., 1996. – P. 23-81; Arnold I.V. The English Word. – Moscow: Higher School Publishing House, 1973. – P. 48; Lipka L. An Outline of English Lexicology. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1992. – P. 77; Knappe G. Idioms and Fixed Expressions in English Language Study. – Los Angeles: Peter Lang, 2004. – P. 208.

¹⁹ "Assonans" atamasi fransuz tilidan kirib kelgan. So'zma-so'z "ohangdoshlik" degan ma'noni beradi // E.Xudoyberdiyev. "Adabiyotshunoslikka kirish". – T.: O'qituvchi, 1995. – 180 b.

²⁰Müller H.G. Adleraug und Luchsenohr. Deutsche Zwillingsformeln und ihre Gebrauch. – Frankfurt: Lang Verlag, 2009. – S. 89.

bo'g'inli, uch bo'g'inli deb tushuntiriladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, nemis tilida ko'plab juft so'zlar tarkibida *pragmatik qoida*²¹ deb ataluvchi konsepsiya mavjud bo'lib, unda juft so'zlarning mavjud omillari yaqqol ko'zga tashlanadi:

- ijobiylik va salbiylik nisbatida: *Alter und Schönheit (izzat-ikromda)*;
- qiymatli va qiymatsiz predmetlarga nisbatan: *Geld wie Heu (puli oshib-toshib yotmoq)*;
- umumiylik nisbatidan kelib chiqqan holatda: *Jahr und Tag (yil va kun)*;
- jonzotlarga nisbatan: *Hund und Katze (it mushuk (kabi), Katze und Maus (mushuk-sichqon))*;
- erkak jinsiga hamda ayol jinsiga tegishli kontekstlarda: *Adam und Eva (Odam Ato va Momo Havo), Hansel und Gretel (Hansel va Gretel), Bruder und Schwester (aka-singil)*;
- M-reduplikatsiyasi, ya'ni so'z yoki bo'g'inning ikki marta oshishi, juftlashishi orqali, unda so'z o'zining asl ma'nosiga ega bo'lmay qoladi, *Kuddelmuddel (qiyinchilik)*;
- tovushga taqlid asosida: *Ticktac (tik-tak)*²².

J.Muxtorov va U.Tursunovlarning fikricha, o'zbek tilida juft so'zlar alohida bir guruh bo'lib, takroriy so'zlar va qo'shma so'zlar tarkibiga kiradi. A.Hojiyev esa juft va qo'shma so'zlar uchun umumiy holda "qo'shma so'z" atamasini qo'llash mumkin emas deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, "juft so'zlar mustaqil leksik ma'noli yoki leksik ma'noga ega ikki tarkibning teng bog'lanishi asosida tashkil topib, umumlashtirish, jamlik kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z, so'zning juft formasi"²³ hisoblanadi.

Juft so'zlar o'zbek tilida (-) chiziqcha qo'yilgan holda yoziladi.

Juft so'zlar orasida **-u(-yu)** bog'lovchisi qo'llansa, bog'lovchidan oldin chiziqcha ishlatiladi: *oq-u qora, kecha-yu kunduz, do'st-u dushman*;

– **-ma, -ba** yordamida birikkan so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *yuzma-yuz, rang-barang, qadam-baqadam* kabi.

– **ko'makchi fe'l bir xil shaklda** bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qo'lasan, uxlabman-qolibman* kabi.

– **sinonimlar yoki antonimlari** yonma-yon qo'llanishi natijasida juft so'zlar hosil bo'ldi: *mehr-oqibat, aka-uka, katta-kichik, kirim-chiqim*.

– juft so'zlar **bir so'zning takroridan** ham hosil bo'ladi: *yosh-yosh, katta-katta*.

– juft so'zlar bir so'zning takroridan hosil bo'lganda, ikkinchisining **bosh bo'g'inida tovush o'zgarishi** yuz berishi mumkin: *non-pon, gap-map* kabi.

Shuningdek, o'zbek tilida juft so'zlar strukturasi ko'ra, tasodifiy yo'l bilan yasalgan so'zlarga ancha o'xshasa ham, aniqlovchi va aniqlanmish tipidagi qo'shma

²¹Ona tilida so'zlashuvchilar avtomatik ravishda pragmatik frazeologizmlardan adekvat, ya'ni ijtimoiy jihatdan maqbul va samarali tarzda, turli xil muloqot holatlarida foydalanishni o'rganadilar. Chet tilini o'rganuvchilar uchun vaziyat juda boshqacha, chunki pragmatik frazeologizmlar asosan til va madaniyat bilan bog'liq. Tarjimada manosi pragmatik xususiyatga ega bo'lgan frazeologizmlar ham uchraydi va ularni boshqa tilga tarjima qilish qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo'lgan yuqori chastota va funksiyalariga qaramay, pragmatik frazeologizmlarning leksikografik ifodalanishida ma'lum kamchiliklar mavjud bo'lib, bu til o'rganuvchilar, tarjimonlar va boshqa lug'atlarda foydalanuvchilar etarlicha leksikografik jihatdan malumotga ega bo'lishi mumkin. Ruusila A. *Pragmatische Phraseologismen und ihre lexikografische Darstellung*. <https://doi.org/10.3726/978-3-653-05282-4>

²²Müller H.G. Adleraug und Luchsenohr. *Deutsche Zwillingformeln und ihre Gebrauch*. – Frankfurt: Lang Verlag, 2009. – S. 88.

²³Hojiyev A. *Lingvistik terminlarning izohli lug'ati*. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 36 b.

soʻzlardan bir qancha tomonlari bilan ajralib turadi. Bu holat nemis tilidan oʻzgina farq qiladi. Quyida ularning turlarini tahlil qilib chiqamiz.

1. Juft soʻzning komponentlari orasidagi grammatik aloqa, bogʻlanishdir, aniqlovchili qoʻshma soʻzlarda esa tobelanishdir. Masalan: *togʻ-tosh, togʻ-u tosh, togʻ va tosh* va boshqalar.

2. Juft soʻzlarda baʼzan komponentlar grammatik va semantik holatlarni saqlagan holda oʻrin almashtira oladilar: *goʻsht-yogʻ – yogʻ-goʻsht*. Ularning oʻrin almashishlari mumkin boʻlmasa, uning sababi semantik yoki boshqa xarakterda boʻladi, lekin grammatik xarakterda boʻlmaydi.

3. Urgʻu jihatdan ham juft soʻzlar farqlanadi, yaʼni oxiridan boshqa komponentda ikkinchi darajali urgʻuning boʻlish holati uchraydi: *qovun-poliz – qovun-tarvuz*. Ammo bunday fonetik birikish, zichlik, yaxlitlanish juft soʻzlarda kam uchraydi.

4. Komponentlar kategorial nuqtai nazardan ham farqlanadi. Juft soʻzning komponentlari bir xil soʻz turkumlaridan iborat boʻladi. ot+ot (yoki ot vazifasida qoʻllangan boshqa soʻz), sifat+sifat kabi.

5. Bundan tashqari oʻzbek tilida nemis tilidan farq qilishi jihatdan kompleksli juft soʻzlar ham uchraydi. Masalan: *qoʻyib-qoʻyib* kompleksi: 1) reduplikatsiya (harakatning takrori yoki uzoq davom etishi maʼnosini bildiradi); 2) analitik feʼl: harakatning oʻrinsiz bajarilganligini – bajarilmasligi kerak boʻlgan ishning bajarilganligini bildiradi.

Oʻzbek tilida juft soʻzlar – kopulyativ tipdagi qoʻshma soʻzlar deyarli hamma soʻz turkumiga xos, lekin u ot, sifat va ravish turkumlarida koʻp uchraydi: *ota-ona, kirim-chiqim, borish-kelish*.

1989-yilda Gertraud Fenk-Oczlon²⁴ binomiallar yoki binomial iboralarning ichki tuzilishini shakllantiruvchi bir necha tamoyillarni ishlab chiqdi va asosiy tamoyil binomial iboralarda odatda tez-tez uchraydigan element kamroq uchraydigan elementdan oldin kelishini taʼkidlab oʻtgan.

Uchlik va toʻrtlik iboralar (Drillings- und Vierlingsformeln).

Nemis tilida *uchlik iboralar* (masalan, *heimlich, still und leise – sukunat, sokin* yoki *Wein, Weib und Gesang – kayf-safo qilib, lazzatlanib yashash tarzi*) va *onda-sonda toʻrtlik iboralar* (masalan, *frisch, fromm, fröhlich und frei – talabalarning turmush tarzi*) kabi yasaladi. Bunday juft soʻzlarning tez-tez takrorlanishi koʻp jihatdan tegishli tilning ritmik va strukturaviy xususiyatlariga bogʻliq. Bu holat oʻzbek tilida uchramaydi va ikki bir biriga qarindosh boʻlmagan nemis hamda oʻzbek tillarda mos kelmaslik holati mavjud.

“Nemis va oʻzbek tillarida juft soʻzlarning strukturasi” deb nomlangan ikkinchi bobda nemis va oʻzbek tillarida juft soʻzlarning strukturaviy farqli hamda oʻxshash tomonlari, juft soʻzlarning ketma-ketligiga taʼsir qiluvchi omillar, ikki tillardagi juft soʻzlarning oʻziga xos xususiyatlari mavjudligi tadqiq qilingan. Ishda nemis va oʻzbek tillaridagi juft soʻzlarining yasalişida nemis tilida uchta rod qoʻshimchalarining faollik darajasi, qaysi soʻz turkumlarida koʻproq uchrashini aniqlashga harakat qilindi. Juft soʻzlarning struktural tuzilishni nemis va oʻzbek

²⁴ Gertraud Fenk-Oczlon: Word frequency and word order in freezes. In: Linguistics. 27, 1989. – P. 537.

tillarida turli jihatlariga ko‘ra aniqlash mumkin. Asosan, nemis tilida morfologik komponentlardan juft so‘zlar turlarga bo‘linishi va o‘zgarishi mumkin. Nemis tilida juft so‘zlarning strukturasi morfologik nuqtai nazaridan nemis olimlari tomonidan turli davrlarda turlicha tadqiq etilgan.

Shuningdek, nemis tilidagi juft so‘zlarni ikkita bir xil qism (Partizipien+Partizipien), undov so‘zlar (Interjektionen+Interjektionen) yoki qo‘shimchalar (Partikeln+Partikeln) yordamida ham tuzish mumkin. Bu esa, asosan, nemis tiliga xos bo‘lgan xususiyatdir. Bir xil so‘z turkumlaridan tashkil topgan juft so‘zlar quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

Ishda tadqiqot manbai bo‘lgan V.Hofmaysterning “Sammlung der gebräuchlichen Zwillingsformeln in der deutschen Gegenwartssprache” (Zamonaviy nemis tilida juft so‘z formalari) va Ruska Simeonova hamda Sanna Dimitrovaning “Deutsch-Bulgarisches Lexikon der Zwillingsformeln” (nemis-bolgar tillarida juft so‘zlar) lug‘atlaridan to‘plangan juft so‘zlar qariyb 1000 tani tashkil etgan edi va uning statistik natijasi quyidagilarni ko‘rsatdi:


1-jadval.

Bir xil so‘z turkumlaridan tashkil topgan juft so‘zlar

So‘z turkumi	Misol	Soni	Foizi
Nomen (N + N)	<i>Geld oder Leben (hayot-mamot; boylik yoki hayot)</i>	345	34,5 %
Adjektive (A + A)	<i>doof und dusslig (betamiz- tentak)</i>	261	26,1 %
Adverbien (Adv + Adv)	<i>frank und frei (ochiq va erkin)</i>	164	16,4 %
Verben (V + V)	<i>morden und brennen (o‘ldirish va yoqish)</i>	108	10,8 %
Pronomen (Pron + Pron)	<i>dies und jenes (uni-buni, unga-bunga)</i>	45	4,5 %
Partizipien (Prtz + Prtz)	<i>behütet und beschirmt (kimningdir) soya-i davlatida bo‘lmoq; himoyasida bo‘lmoq),</i>	37	3,7 %
Zahlwörter (Num + Num)	<i>fünf vor zwölf (hayot-mamot (oz vaqt qoldi ma‘nosida))</i>	21	2,1 %
Präpositionen (Präp + Präp)	<i>Für und Wider (foйда va zarar; plus-minus tomonlari, kamchilik va afzalliklari)</i>	9	0,9 %
Interjektionen (Intj + Intj)	<i>ach und weh (ox- vox)</i>	6	0,6 %
Partikeln (Prtk + Prtk)	<i>eh und je (azal-azaldan)</i>	4	0,4 %
Jami		1000	100 %

Jadvalda ko‘rsatilishicha, juft so‘zlarning nemis tilida, asosan, ko‘proq ot so‘z turkumidan tashkil topishi aniqlandi.

O‘zbek tilida Sh.Imyaminova va G.Tilovovalarning “Nemis va o‘zbek tillarida juft so‘zlar” nomli uslubiy qo‘llanmasi hamda N.Mamatovning “O‘zbek tilidagi hozirgi qo‘shma so‘zlar” nomli lug‘atlaridan 700 ta juft so‘z tanlab olindi va quyidagicha statistik tahlil qilindi.



O'zbek tilida ham, asosan, ot so'z turkumi juft so'zlar tarkibida yetakchilik qiladi. Ammo nemis tilidagi otlarda juft so'zlarning birinchi yoki ikkinchi komponentida so'z o'zgarmaydi.


Nemis tilida so'z turkumlaridan iborat bo'lgan juft so'zlarning ko'makchilar, predloglar va bog'lovchilar yordamida yasalishining statistik tahlili natijalari quyidagicha:

2-jadval.

Ko'makchi, predlog va bog'lovchilar yordamida so'z turkumlaridan yasalgan juft so'zlar


№	Bog'lovchilar	Nemis tilida	%
1.	und	Geld und Gut (mol-mulk)	46,81 %
2.	mit	mit Ach und Krach (inqillab-sinqillab)	29,1 %
3.	oder	Geld oder Leben! (hayot-mamot; boyluk yoki hayot)	9,3 %
4.	aber	alt, aber gut (eski-tuski, ammo yaxshi)	1,33 %
5.	weder/noch	weder Baum noch Strauch (buta va daraxt, shox va buta)	1,06 %
Jami:			87,6 %
№	Ko'makchilar	Nemis tilida	%
1.	als	nichts als Kummer und Sorgen (Qayg'u va tashvish (dan o'zga narsa yo'q))	0,92 %
2.	wie	wie Feuer und Wasser (telba-teskari, qarama-qarshi)	0,92 %
Jami:			1,84 %
№	Predloglar	Nemis tilida	%
1.	für	für einen Apfel und ein Ei (tep-tekin olmoq)	2,39 %
2.	von/bis	Von A bis Z (boshidan-oxirigacha)	1,59 %
3.	von/zu	von Hand zu Hand (qo'ldan-qo'lga)	1,46 %
4.	an	Wand an Wand (devorma-devor, eshikma-eshik)	1,06 %
5.	in	Arm in Arm (ko'lma - ko'l, yelkama - yelka)	1,02 %
6.	um	Zahn um Zahn (tishma-tish)	0,93 %
7.	auf	auf Ehre und Gewissen (shon-sharaf)	0,66 %
8.	nach	nach Takt und Noten (pishiq va puxta)	0,40 %
9.	über	über Berg und Tal (qir - adir, tog'u tosh)	0,40 %
10.	von	von Angesicht zu Angesicht (yuzma-yuz)	0,26 %
11.	vor	Alter vor Schönheit (izzat-ikromda)	0,26 %
12.	ohne	ohne Fehl und Tadel (bekamu ko'st)	0,13 %
Jami:			10,6 %

Nemis tilida juft soʻzlarning koʻmakchilar, bogʻlovchilar va predloglar yordamida yasalishining statistik tahlili



Juft soʻzlarni tarkibiy qismi jihatdan oʻrgangan va statistik xulosalardan aniqlanishicha, asosan, **mit** va **und**, **oder** koʻmakchi va bogʻlovchilari nemis tilidagi otlarning juftlashishida qoʻllaniladi.

Oʻzbek tilida juft soʻzlarning affiksatsiya, bogʻlovchilar va yuklamalar yordamida yasalishining statistik tahlili



Oʻzbek tilida esa soʻz yasovchi qoʻshimchalar juft soʻzning ikkala komponenti uchun bir xil boʻlgan hollarda uning juft soʻzga qoʻshilishi kuzatiladi.

Agar juft soʻz, soʻz yasovchi qoʻshimchani olmagan holda juft soʻz sifatida qoʻllanmaydigan boʻlsa, soʻz yasovchi affiks juft soʻzning ikkala komponentiga qoʻshiladi. Agar ikkala komponenti uchun umumiy boʻlgan soʻz yasovchi affiksga ega boʻlgan juft soʻz shu affiksni olmagan holda ham juft soʻz sifatida qoʻllanadigan boʻlsa, bunday hollarda soʻz yasovchi affiks juft soʻzning keyingi komponentiga qoʻshiladi. Masalan, *mast-alastlik*, *qarindosh-urugʻchilik* va shu kabilar. Bu yerdagi misollarda **-lik**, **-chilik**, **-garchilik** affikslari juft soʻzning keyingi komponentiga qoʻshilmoqda²⁵.

Nemis tilida yuqorida berilgan 1-jadvalga kiritilmagan mustasno holatlar ham uchradi. Buni, asosan, olimlardan K.Pils²⁶ tadqiq etgan boʻlib, unga koʻra, juft soʻzlar tarkibini tashkil etuvchi soʻz turkumlarida oʻzaro ichki almashinuv holatlari kuzatildi.

²⁵ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1985. – 40 b.

²⁶ Pilz K.D. Phraseologie: Redensartenforschung, Stuttgart, Narr, Metzler. 1981. –S 147.

Juft soʻzlar tarkibini tashkil etuvchi soʻz turkumlarida oʻzaro ichki almashinuv holatlari

(A+Prtz) Adjektive+Partizipien (sifat+sifatdosh)	<i>tot und begraben (oʻlding-oʻchding)</i>
(Prtz+A) Partizipien+Adjektive (sifatdosh+sifat)	<i>gedrängt und anschaulich (qisqa-loʻnda)</i>
(Adv+N) Adverb+Nomen (ravish+ot)	<i>husch und Pfus (ox-vox)</i>
(Adv +A) Adverb + Adjektive (ravish+sifat)	<i>hoch und heilig/teuer (ont ichmoq, qasam ichmoq)</i>
(Num + A) Nummer + Adjektive (son+sifat)	<i>(zwischen) achtzig und scheintot (qarib-qartaymoq)</i>

Nemis tilida sifat soʻz turkumlarida ham juftlashish holatlari koʻplab uchraydi. Ayniqsa, ikkala taqqoslanayotgan tilda oʻzaro antonim va sinonim munosabatda boʻlgan sifatlarda buni yaqqol koʻrish mumkin. **Masalan: gross-klein, katta-kichik. Oʻzbek tilida nemis tilidan farqli ravishda soʻz yasovchi -lik, -chilik, -zarchilik** affikslarini juft soʻzning har bir komponentiga alohida-alohida qoʻshib qoʻllash mumkin. Lekin bu affikslarning juft soʻzning oxiriga qoʻshilishi bilan har bir komponentga alohida qoʻshilishida katta farq bor. **-Lik, -chilik, -zarchilik** affikslari juft soʻzning keyingi komponentiga qoʻshilganda juft soʻzlarga xos barcha belgilar saqlanadi. Masalan, juft soʻzning komponentlari orasida pauza qisqa boʻlib, umumlashtirish maʼnosi ham boʻladi: *mast-alastlik* juft soʻzi *mastlik, alastlik* formasida qoʻllanganda, har bir soʻz alohida keladi.

Nemis tilida ham oʻzbek tilidagi kabi juft soʻzlarning strukturaviy tuzilishi bir xildir.

a) kam boʻgʻinli soʻz koʻp boʻgʻinli soʻzdan oldin keladi;

b) juft soʻzning ikkala komponenti teng boʻgʻinli boʻlsa, unli bilan boshlangani avval keladi;

c) agar juft soʻzning ikkala komponenti teng boʻgʻinli boʻlsa, ikkalasi ham undosh bilan boshlangani oldin qoʻllanadi. Ammo nemis tilida oʻzbek tilidan farqli jihatdan ushbu tartibni mustasno qiluvchi oʻrin almashish holatlari ham uchraydi.

Bundan tashqari nemis tilida juft soʻzlarning strukturasi muhim jihatlardan yana biri bu **autosemantisches Element** va **synsemantische Komponente (autosemantik komponent va sinsemantik komponent)**ga qarab tasnif etilishidir. Bu nemis tilida juft soʻzlarni oʻrgangan tilshunos olim H.Palm tomonidan ilgari surilgan va unga koʻra, ularni quyidagicha izohlash mumkin:

– **As+Ss+As** . Masalan: *Schritt für Schritt (har qadamda)*;

– **Ss+As+Ss+As**. Masalan: *weder Fisch noch Fleisch (na u yoqli na bu yoqli)*;

– **As+As**. Masalan: *landauf, landab (sayru sayohat (mamlakat boʻylab))*;

– **As+As+As** . Masalan: *geschehen ist geschehen*²⁷.

Yaʼni juft soʻzlarning qaysidir tarkibi struktural jihatdan muhim boʻlsa-da, ammo katta ahamiyatga ega emas. Masalan, *weder Fisch noch Fleisch* bu yerda birinchi soʻz *weder-* u maʼno berishiga qaramasdan juft soʻz tarkibida uncha muhim emas. Shuning uchun **synsemantische Komponent** deb yuritiladi va “Ss” belgisi bilan ifodalanadi. Keltirilgan misoldagi ikkinchi soʻz bu *Fisch* va u ushbu tarkibda

²⁷ Palm Ch. Phraseologie. Eine Einführung. – Tübingen: Hueber, 1997. – S. 42.

asosiy maʼnoni anglatayotgan birinchi obyekt sifatida **autosemantisches Element** hisoblanadi hamda biz uni “**As**” belgisi bilan belgilaymiz. Xuddi shu kabi *noch* ham “**Ss**” komponent boʻlsa, *Fleisch* “**As**” elementdir. Shunday qilib, *weder Fisch noch Fleisch* juft soʻzidan quyidagi formula tashkil topadi → **Ss+As+Ss+As**.

Juft soʻzlar semantik-ekspressiv imkoniyatga ega boʻlib, bu orqali juft soʻzlarning otlashgan qismiga tegishlidir. Masalan: *das Alte und das Neue* eski va yangi juft soʻzida “*alt*” va “*peie*” soʻzlari sifat soʻz turkumiga oid boʻlib, ularning oldidan artikl kelishi sifatlarning otlashishiga olib keladi. Otlashgan sifatlarda esa juft soʻz hosil kiladi.

Dissertatsiyaning “**Nemis va oʻzbek tillarida juft soʻzlarning semantik tahlili**” deb nomlanuvchi uchinchi bobida zamonaviy nemis tilida juft soʻzlar va ularning universal xarakteri, nemis tilida juft soʻzlarning oʻzbek tiliga tarjima qilinishidagi qiyinchiliklari, nemis tilidagi badiiy matnlarda juft soʻzlar va ularning tarjima qilish usullari, nemis tilida juft soʻzlarning soʻz turkumlari boʻyicha oʻzbek tiliga tarjima qilinishiga bagʻishlangan. Juft soʻzlarning tarkibiy-maʼnoviy oʻziga xosliklarini tadqiq qilish leksikologiya rivojiga qoʻshilgan muhim hissa sifatida qaralishi mumkin.

